

"O'zkimyosanoat" AJ va "Acquaflex" kompaniyasi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

// 25.04.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-acquaflex-kompaniyasi-o-rtasida-hamkorlik>



Joriy yilning 24-aprel kuni Toshkent shahrida Italiyaning Acquaflex S.r.l. kompaniyasi va "O'zkimyosanoat" AJ o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi imzolandi.

Memorandumni imzolash marosimida Acquaflex kompaniyasi ishonchli vakili Jorjio Veronezi, "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi Odil Temirov, boshqaruv raisi o'rinbosari Akbar Kurbanov va O'zbekistonning Italiyadagi favqulodda va muxtor elchisi Abat Fayzullayev ishtirok etishdi.

Ushbu memorandum ishlab chiqarish jarayonlari uchun suvni tozalash, texnologik kimyoviy moddalar, shuningdek, oziq-ovqat sanoati va ichimliklar ishlab chiqarishda innovatsion yechimlarni joriy etishda hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.



Mazkur hamkorlik O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, jumladan, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo ayirboshlashda kimyo sanoati muhim ahamiyat kasb etayotganidan dalolat.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati